



(dastlabki ma'lumotlar)

Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2020-yil yanvar - mart

2020 - yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **65,0 %**ni tashkil etdi.

2020 - yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **10,5** birlikni tashkil qildi.

2020 - yilning yanvar - martida **1626** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,8** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - 660 ta, sanoatda - 355 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 255 ta, qurilishda - 132 ta, yashash va ovqatlanishda - 60 ta, tashish va saqlashda - 37 ta tashkil etilgan.

2020-yil yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Savdo
40,6 %



Sanoat
21,8 %



Qurilish
8,1 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi
15,7 %



Yashash va
ovqatlanish
3,7 %



Tashish va saqlash
2,3 %

**Yanvar - mart oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'Ichov birligi	2019-y.	2020-y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	18776	22692	3916
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2078	1626	-452
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	66,9	65,0	-1,9
Sanoat	%	63,3	60,3	-3,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	95,3	96,0	0,7
Investitsiya	%	25,7	72,0	46,3
Qurilish	%	96,7	80,6	-16,1
Savdo	%	88,8	88,6	-0,2
Xizmatlar	%	66,2	64,5	-1,7
Yuk tashish	%	95,3	95,1	-0,2
Yuk aylanmasi	%	88,1	93,5	5,4
Yo'lovchi tashish	%	97,6	97,5	-0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,8	95,2	-2,6
Eksport	%	86,4	84,1	-2,3
Import	%	91,2	86,7	-4,5



**2020-yilning yanvar - martida kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari. %**




2020-yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida - 375 ta, Pop tumanida - 212 ta, Namangan tumanida - 139 ta, Norin tumanida - 119 ta, Uchqo'rg'on tumanida - 113 ta, Chust tumanida - 112 ta, Uychi tumanida - 111 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on tumanida 56 tani tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar, birlikda**

	Yanvar–mart 2019 - yil	Yanvar– mart 2020 - yil	(+;-)
Namangan viloyati	2078	1626	-452
Namangan sh. <i>tumanlar:</i>	597	375	-222
Mingbuloq	105	100	-5
Kosonsoy	150	85	65
Namangan	126	139	13
Norin	133	119	-14
Pop	164	212	48
To'raqo'r'g'on	119	100	-19
Uychi	134	111	-23
Uchqo'r'g'on	159	113	-46
Chortoq	101	104	3
Chust	191	112	-79
Yangiqo'r'g'on	99	56	-43



**2020-yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, %**




2020-yil yanvar - mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Namangan shahri - 23,1 %, Pop tumani - 13,0 %, Namangan tumani - 8,5 %, Norin tumani - 7,3 %, Uchqo'rg'on tumani - 7,0 %, Chust tumani - 6,9 %, Uychi tumani - 6,8 % va Chortoq tumani - 6,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	(+;-)
Jami	2078	1626	-452
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	120	255	135
Sanoat	573	355	-218
Qurilish	140	132	-8
Savdo	921	660	-261
Tashish va saqlash	63	37	-26
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	122	60	-62
Axborot va aloqa	21	27	6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	13	25	12
Boshqa faoliyat turlari	105	75	-30


Ma'lumot uchun: 2020-yilning yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Namangan shahri	597	375	-222
Pop tumani	164	212	48
Namangan tumani	126	139	13
Norin tumani	133	119	-14
Uchqo'rg'on tumani	159	113	-46
Chust tumani	191	112	-79

2020-yil yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida – 375 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda





Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - mart holatiga*




2020-yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Namangan shahrida 13,3 birlik, Namangan tumanida 13,0 birlik, Mingbuloq tumanida 12,1 birlik, Chust tumanida 11,2 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 10,2 birlik, Chortoq tumanida 9,7 birlikni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich To'raqo'rg'on tumanida 8,2 birlikni tashkil etib pastligicha qolmoqda.

* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari



2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*




* Kichik korxona, mikrofirmalar(fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)**



- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Namangan shahri - 13,1 birlik;



- **O'rtacha ko'rsatkich**
Uchqo'rg'on tumani - 10,2 birlik;




- **Eng past ko'rsatkich**
To'raqo'rg'on tumani - 8,2 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Namangan shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, To'raqo'rg'on tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi, yanvar - mart holatiga, %

2020-yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 65,0 %ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - martida 66,9 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2020-yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Namangan viloyati	60,3	80,6	64,5	72,0
Namangan sh. <i>tumanlar:</i>	60,7	47,1	41,7	67,7
Mingbuloq	11,1	100,0	92,9	97,8
Kosonsoy	97,3	92,3	89,5	97,0
Namangan	79,1	100,0	97,7	98,8
Norin	100,0	100,0	90,1	96,9
Pop	32,4	73,9	79,6	64,1
To'raqo'rg'on	39,2	100,0	77,2	26,0
Uychi	99,9	100,0	96,8	94,8
Uchqo'rg'on	50,3	100,0	93,4	92,9
Chortoq	100,0	100,0	91,7	85,9
Chust	50,8	100,0	94,5	89,9
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	96,3	95,9

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Yangiqo'rg'on,
Chortoq va
Norin (100,0 %),
Uychi (99,9 %),
Kosonsoy (97,3 %) va
Namangan (79,1 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Mingbuloq, Namangan,
Norin, To'raqo'rg'on,
Uychi, Uchqo'rg'on,
Chortoq, Yangiqo'rg'on
va Chust (100,0 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-


Namangan (98,8 %),
Mingbuloq (97,8 %),
Kosonsoy (97,0 %),
Norin (96,9 %),
Yangiqo'rg'on (95,9 %),
Uychi (94,8 %),
Uchqo'rg'on (92,8 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - martida

-
- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1356,2 mln. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 60,3 %) tashkil qildi.
 - 2 1543,9 mln. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 72,0 %) o'zlashtirildi va 2019 - yilning yanvar - martiga nisbatan o'sish sur'ati 183,0 %ni tashkil qildi;
 - 3 555,8 mln. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 80,6 %) bajarildi va 2019 - yilning yanvar - martiga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 %ni tashkil qildi;
 - 4 1293,9 mln. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 64,5 %), 2019 - yilning yanvar - martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 %ni tashkil qildi;
 - 5 Chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 88,6 % yoki 2280,7 mln. so'mi (o'sish sur'ati 104,9 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
 - 6 72,9 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 84,1 %) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2019 - yilning yanvar - martiga nisbatan 3,4 %ga ko'p;
 - 7 Avtomobil transporti yuk aylanmasi 4,6 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 93,5 %i) ko'payishi ta'minlandi;
 - 8 Yo'lovchi aylanmasi 1,4 %ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 95,2 %i) ko'payishi ta'minlandi.




**Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga
oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining
jami eksportdagi ulushi, %**



2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, Uchqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarida – 100,0 %, Chust tumanida – 99,6 %, Uychi va Chortoq tumanlarida – 99,0 %ni, eng past ko'rsatkich To'raqo'rg'on tumanida – 55,9%ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, %




2020-yil yanvar - mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Chust, Uychi, Pop, Norin, Kosonsoy va Mingbuloq tumanlarida - 100,0 %, To'raqo'rg'on tumanida - 99,9 %, Namangan tumanida - 98,3 %.

Eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on tumanida - 26,6 %ni tashkil etdi.





2020-yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (527,4 mlrd. so'm), Namangan (159,9 mlrd. so'm), Uychi (157,8 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (121,4 mlrd. so'm) va Uchqo'rg'on (110,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Mingbuloq tumanida (10,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.



**2020-yil yanvar - mart holatiga jami
sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Norin, Yangiqorgon va Chortoq tumanlarida - 100,0 %, Uychi tumanida - 99,9 %, Kosonsoy tumanida - 97,3% Namangan tumanida - 79,1 %ni tashkil etdi.

Aksincha, Mingbuloq tumanida (11,1 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.



2020-yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (931,6 mlrd. so'm), Norin (208,7 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (162,6 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (137,3 mlrd. so'm), Pop (133,7 mlrd. so'm) va Namangan (125,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2020-yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (107,2 mlrd. so'm), Namangan (81,1 mlrd. so'm), Kosonsoy (68,9 mlrd. so'm), Uychi (58,9 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (38,5 mlrd. so'm), Chust (36,9 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (34,1 mlrd. so'm) hamda Chortoq (32,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.





**2020-yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar
sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (114,8 mlrd. so'm), Chortoq (17,0 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (16,2 mlrd. so'm), Chust (13,7 mlrd. so'm), Namangan (12,2 mlrd. so'm), Pop (11,9 mlrd. so'm) va Uychi (11,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **936** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 4,4 % (41 ta), sanoatda – 25,2 % (236 ta), qurilishda – 10,2 % (95 ta), savdoda – 33,0 % (309 ta), xizmatlar sohasida – 27,2 % (255 ta).

*oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.

2020-yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020-yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020-yil I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat barcha faoliyat turlari bo'yicha oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalarning ulushi xizmatlar (3,6 punkt) sohasidan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 0,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 yillar I chorakdagи iqtisodiy vaziyatni baholash, %da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020-yil I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (5,6 punkt) sohasidan boshqa barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, xizmatlar sohasi 0,9 punktga, savdo sohasi 2,3 punktga, sanoat korxonalari 1,0 punktga, qurilish korxonalari 0,8 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi ximatlar sohasida 2,7 punktga, sanoat sohasida 2,5 punktga, savdoda 1,3 punktga, qurilishda 1,1 punktga oshdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 - 2020 yillar I chorakdagи iqtisodiy vaziyating yaqin uch oyda baholanishi,%da







2020-yil I choragi yakunlariga ko'rta yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 135 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 26 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 19,3 %), qurilish – 11 ta (8,1 %), savdo – 58 ta (43,0 %) va xizmatlar – 20 ta (14,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 20 ta (14,8 %).

2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da






2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 5,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 0,7 punktga oshdi. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidan (-1,4 punkt) tashqari deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sishi kuzatildi.


Joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda 37,4 punktga, savdoda 7,7 punktga, xizmatlarda 5,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra, yang tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra 2020-yilning I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi savdodan (-10,2 punkt) tashqari barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oshgan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 18,6 punktga, xizmatlar sohasida 6,7 punktga, qurilishda 4,0 punktga, sanoatda 1,7 punktga kamaydi, savdo korxonalarida esa 8,5 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 1,1 punktga, sanoatda 2,6 punktga kamaydi.





**Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi**
Tel.: (0369) 227-84-76